TASVIRIY SAN'AT FANIDAN MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHDA "ISPRING" DASTURIY TA'MINOTINING AHAMIYATI

Xusan Xolmuratovich Muratov
TVChDPI, Tasviriy san'at kafedrasida dotsent v.b.
x.muratov@cspi.uz

ANNOTATSIYA

Maqola estetik sikliga kiruvchi muhim fanlardan biri bo'lgan tasviriy san'atdan talaba yoshlarga ta'lim berishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga qaratilgan. Shuningdek unda mustaqil bilim olishda axborot texnologiyalarining muhimligi, yoshlarning dunyoqarashiga mos manbaalarni zamonaviy ko'rinishdagi, interaktiv va kreativ tarzda axborot texnologiyalarida tayyorlash va uzatishning bugungi kunda dolzarb masalalardan iboratligi xaqida boradi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, pedagogika, kreativ, interaktiv, kontent, mustaqil ta'lim, elektron resurs va elektron test.

THE IMPORTANCE OF 'ISPRING' SOFTWARE IN THE ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF SELF-SUDY PROCESS IN THE FIELD OF FINE ARTS

Husan Kholmuratovich Muratov
Associate Professor of the Department of Fine Art of CSPI
x.muratov@cspi.uz

ABSTRACT

The article focuses on the use of advanced pedagogical technologies in the teaching of fine arts to students, one of the most important disciplines in the aesthetic cycle. It also discusses the importance of information technology in independent learning, the preparation and transmission of information resources in a modern, interactive and creative way, relevant to the worldview of young people.

Key words: Fine arts, pedagogy, creative, interactive, content, independent learning, e-resource and e-test.

KIRISH

Har qanday jamiyat uchun yuqori bilimga ega bo'lgan malakali kadrlarni yetishtirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa texnologiyalar

rivojlangan asrimizda pedagogik kadrlardan axborot texnologiyalardan foydalanib ta’limni tashkil etish dolzarb masala bo’lib qolmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev ilm-ma’rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratib: “Taraqqiyotga erishish uchun, raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi” deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat ta’lim tizimining kelajagini raqamli texnologiyalarsiz rivojlantirib bo’lmaydi. 2020-yilni “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb elon qilinishi ham bejiz emas.

Ayrim o‘rta umumta’lim maktablarida tasviriy san’at fanini o‘qitishda ham axborot texnologiyalar qo‘llanilib kelinadi. Afsuski, bu jarayon o’quvchilarning ta’lim olishida emas o’qituvchilarning xujjatlarini rasmiylashtirilishi hamda o’quvchilarga dars jarayonida video materiallar ko’rsatish uchungina xizmat qilmoqda. Mustaqil ta’lim olish kompetensiyalarini takomillashtirish shuningdek, auditoriya va sinfda o‘tiladigan mashg‘ulotlar o’quvchi -yoshlarning yetuk ijodkor bo‘lib voyaga yetishishlarida yetarli emasligini e’tiborga olib, ularni ko‘proq mustaqil ta’lim olishi, mustaqil ijod qilishiga o‘rgatish muhimdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda o‘quvchilarning mustaqil talimini to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarish mexanizmlari to’liq ishlab chiqilmagan. O’quvchi-yoshlarnilarning mustaqil bilim olish faoliyatida axborot texnologiyalari yetarli qo‘llanilmayapti desak bu ham to‘g‘ri bo‘ladi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchining bilim olishida shunchalar muhimki, bugungi avlodlarimiz IT olamida, internet asrida ulg‘aymoqda va yashamoqda. Ularning dunyoqarashiga mos manbaalar: jumladan, zamonaviy ko‘rinishdagi interaktiv va kreativ axborot texnologiyalarini tayyorlash hamda uzatish juda dolzarb masaladir. Bugungi karantin cheklovlari ushbu masalani nechog‘lik dolzarbligini yana bir bor ko‘rsatib o‘tdi.

Tasviriy san’t darslarini va ushbu fandan o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishida dars ishlanmalarini turli dasturiy ta’minotlar, animatsiyalar hamda ta’lim kontentlaridan foydalanib shakllantirish davr talabi bo’lib qolmoqda. Dasturiy ta’minotlar, zamonaviy ta’lim kontentlari, axborot texnologiyalardan foydalanish haqida bilimlarni bo’lajak o’qituvchilar avvalo pedagogika oliy o‘quv yurtlarida egallashlari kerak. Bu bilimlarni “Tasviriy san’at va muhandilik grafikasi” ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi Axborot texnologiyalari fani hamda “O’qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlari”da chuqur va puxta o‘rgatish muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Ushbu masalalarni hal etishda biz o‘z tajribamizdan kelib chiqib quyida iSpring dasturiy ta’minotida tasviriy san’at fanidan interaktiv test tuzish, uning afzalliklari hamda undan kutiladigan natijalar haqidagi ma’lumotlarni taqdim qilmoqchimiz.

Elektron axborot ta’lim resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta’minotlardan biri iSpring dasturi hisoblanadi [http:// www. ispringsolutions. com]. iSpring dasturida test tuzishni bayon etishdan oldin, elektron axborot ta’lim resurslariga nimalar kirishini ko‘rsatib o‘taylik. Elektron axborot ta’lim resurslariga fan bo‘yicha yaratilgan elektron darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik ko‘rsatmalar, multimediyali vositalar, ma’lumotnomalar, lug‘atlar, gipermatnlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o‘xshash o’quvchining mustaqil bilim olishini ta’minlovchi, o‘rganishga qiziqish uyg‘otuvchi resurslar kiradi.

Yuqorida keltirilgan resurslarga qo‘shimcha sifatida pedagogik dasturiy vositalar, video va audio ma’ruzalar, virtual laboratoriya stendlari, intreaktiv plakatlarni kiritish mumkin.

Odatda, taqdimotni o‘tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta’minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo‘lishi mumkin (ppt, pptx). Internet texnologiyalarining rivojlanishi va masofali ta’lim turining paydo bo‘lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o‘zida onlayn ko‘rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo‘lishi kerak.

Hozirgi kunda PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring Freye, iSpring PRO va iSpring Presenter kabi variantlarga ega [http://www.ispringsolutions.com]. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va optsiyalar soniga ko‘ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta’lim jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so‘rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o‘zaro interaktiv bog‘lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring dasturining quyidagi imkoniyatlari mavjud:

• taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;

• taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;

• taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko‘ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo‘yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;

• video qo‘shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;

• elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o‘qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o‘rnatilgan (Quiz tugmachasi);

• masofaviy o‘qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;

• taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;

• videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;

• YouTube tarmog‘iga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

iSpring Kinetics dastur imkoniyatlari elektron ta’lim texnologiyalari resurslari ichiga kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin. iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

• tarmoqlangan testlar yaratish (adaptatsiyalashtirilgan testlar) imkoniyati;

• ikki, uch, to‘rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari: ulardan biri to‘g‘ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turdagi topshriqlar;

• bir necha to‘g‘ri javobli yopiq test topshiriqlari;


• ochiq test topshiriqlari;

• o‘xshashlikni aniqlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar;

• to‘g‘ri ketma-ketlikni aniqlashga mo‘ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.

NATIJALAR

Interaktiv testlarni iSpring QuizMaker dasturi yordamida tuzish uchun kompyuterga iSpring Suite dasturi bilan Adobe Flash (operatsion tizim razryadiga ko‘ra 32 va 64 bitli) dasturi o‘rnatilishi talab etiladi. Dastur o‘rnatib bo‘lingach Пуск menyusidan Все программы bo‘limida iSpring Suite tanlanadi va natijada 1-rasmdagi oyna paydo bo‘ladi. Test bo‘limiga kirib новый тест bo‘limi tanlanadi.



1-rasm

Ishchi oynaning Добавит тест bo‘limidan test yaratish amali boshlanadi. Ushbu bo‘limda pedagogik testlar turlarining 11dan 14 ta gacha turi keltirilgan ularni kerakligini tanlab test tuzishimiz mumkin. Sizning ijodkorligingiz va kreativ yondashuvingiz 14 turdagi testning 50 dan ortiq turli interaktiv shakllarini tuzish imkoniyatini beradi. Ular quyidagilar:

1. Верно/неверно (to‘g‘ri/noto‘g‘ri) test turi –bunda savol berilib to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobini tanlanadi;

2. Одиночный выбор (bitta javobni tanlash) – bir necha variatdan kerakli javobni tanlash;

3. Множественный выбор (bir necha javobni tanlash);

4.Ввод строки (satr kiritish) – javobni satrga kiritish yo‘li bilan javob berish;

5. Соответствие (mos keltirish) – savollarni javoblariga mos keltirib qo‘yishorqali javob berish;

6. Порядок (tartib) – javobni kerakli tartibga keltirib javob berish;


7. Ввод числа (sonni kiritish) – satrga savol javbiga mos sonni kiritib javob berish;

8. Пропуски (tushirib qoldirilgan) –tushirib qoldirilgan so‘zlarni kerakli joyga qo‘yib yozish;

9. Вложенные ответы (jamlagan javoblar)–jamlangan javoblar ichidan to‘g‘ri javobni tanlash orqali javob berish;


10. Банк слов (so‘zlar ombori) –so‘zlar omboridan kerakli so‘zlarni to‘g‘ri ketma - ketlikda qo‘yish orqali javob berish. Bunda so‘zlar omboriga so‘zlarni ham kiritish kerak bo‘ladi.

11. Активная област (faol soha) –rasmda faol sohani tanlab javob beriladi. Bunda rasmning biror sohasini tanlash kerak bo‘lgan savol kiritiladi. Test tuzishda ana shu testlar turini tanlab unga mos savollar berib, javobini ham kiritish kerak bo‘ladi (2-rasm).




2-rasm

Birinchi qadam biz ko‘rib turganimizdek dasturda hamma so‘zlar ruschada berilgan. Ularni o‘zbekchaga o‘tkazib olishimiz ham mumkin. Dasturni ishchi oynasida Test bo‘limidan Плеер bandini tanlaymiz. Shunda oyna ochiladi (3–rasm). Oynaning chap bo‘lmidan Надписи bandini tanlaymiz. Сообщение/кнопка ustuniga tegmagan holda Сообщения ustuni (ikkinchi ustun)ga berilgan so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qilib kiritib tahrirlashimiz mumkin. Natijada testimiz o‘zbekcha ko‘rinishga keladi




3-rasm

Ikkinchi qadamda kerakli test turini Вопрос bo‘limidan tanlaymiz. Misol uchun верно/неверно turi. Shunda dastur oynasi quydagicha ko‘rinishga keladi (4–rasm)




4-rasm


Ushbu oynaning вопрос oynachasiga savol kiritilib, unga ko‘ra ответ oynasiga ikkita javob kiritib, savolga mos to‘g‘ri javobni tanlab qo‘yiladi. Dastur oynasining o‘ng qismida rasm kiritish, ovoz qo‘shish, video qo‘shish rasm belgili tugmachalar mavjud. Mazkur tugmachalar yordamida fayllardan tasvir, formula, ovoz, videolar tanlab savollar ham tuzish imkoniyati mavjud. Shu tarzda har xil test turlaridan tanlab, ijodiy yondashgan holda o‘quvchi yoshlarga interaktiv testlarni yaratish mumkin (5-6-7-8-rasmlar).




5-rasm



6-rasm



7-rasm




8-rasm

MUHOKAMA

Uchinchi qadam. Test tuzib bo‘lingandan so‘ng uni sozlash kerak bo‘ladi. Umumiy ball berish, har bir savolga necha ball berish (Savollarni murakkabligiga qarab istalgan savolga istalgancha individual ball qoyish), testning davomiyligi, testni boshlash uchun ro‘yhatdan o‘tish (O’quvchining familyasi, ismi, Sharifi,


maktabi nomi yoki raqmi, nechanchi sinfda o‘qishi v.k), Test natijasini biror serverga yuborish yoki o‘qituvchining elektron pochtasiga yuborish kabi ko‘plab sozlamalarni to‘g‘rilash imkoniyati mavjud. Buning uchun yana Свойства bo‘limiga kiramiz va o‘zimizga kerakli testimiz uchun mos sozlamalarni amalga oshiramiz (9-rasm).

To‘rtinchi qadam dastur oynasining Главная bo‘limidan Публикатсия bandini tanlaymiz. Yaratgan testimizni to‘rt xil ko‘rinishda yaratishimiz mumkin. Web sahifa, iSpring Online, LMS, Word sahifasi. Undan keyin test formatini HTML, exe, Zip arxivni tanlashimiz, tester nomi, qo‘llanish ko‘lami, saqlanadigan o‘rni, fayl nomi va flesh-rolik xususiyatlarini tanlab Publikovat tugmasini bosamiz (10-rasm).




9-10-rasmlar

Ushbu sozlovlar orqali yaratgan testimizni internet saytlariga joylashtirish, masofaviy ta’lim platformalariga moslashtirish, android qurilmalariga moslash (apk) orqali bir qator qulayliklarga ega bo‘lish mumkin. Uning yana bir avzalligi shundaki internetsiz (ofline) ham testlardan foydalanish mumkin. Mazkur amaldan so‘ng testimiz tayyor holatda quyidagi ko‘rinishga keladi (11-rasm).



11-rasm

O’quvchi o‘zining ma’lumotlarini kiritadi va testni bajaradi. Test yakuniga yetgach test natijasi sozlamalarga mos holda ta’lim platformalariga yoki o‘qituchining elektron pochtasiga quyidagi holatda yetib boradi (12-rasm).



12-rasm

XULOSA

Yuqorida keltirilgan testdan ko‘rinib turibdiki, bu test an’naviy testlarga nisbatan bir xillik bo‘lmaydi va o‘quvchilarga birmuncha qiziqarliroq tarzda kerakli bilimlarni bera oladi. Undan tashqari bu interaktiv testlarni rasm, ovoz va formulalar yordamida tuzish imkoniyati mavjudligi ularni yanada katta qiziqish bilan ishlashga chorlaydi. Oddiy testlardan farqli ravishda bu testlar musiqa yo‘nalishi talabalari uchun biror bir musiqadan parcha qo‘yib savollar tuzish imkoniyatini yaratadi. Informatika, matematika, fizika, biologiya, geografiya va h.k. lar uchun ham juda qiziqarli interaktiv testlar tuzish imkoniyati mavjud. Undan tashqari testni kompyuter tarmoqlari orqali ham o‘tkazish imkoniyati borligi va elektron pochta orqali yuborish imkoniyatlari mavjudligi hozirgi zamonaviy ta’lim talablariga ham javob bera oladi. Natijada o‘qituvchi va o‘quvchilarda quyidagi malakalar shakillanadi:

- o‘qituvchida qaysidir ma’noda ta’limni boshqarish va nazorat qilish imkoni paydo bo‘ladi;
- o‘qituvchining IT sohasida malakasi va ijodkorligi oshadi;
- o‘qituchining ilmiy saloyati va ilmiy darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi;
- o‘quvchilar bilish faoliyatining rivojlanishi va takomillashuvida sezilarli o‘zgarishlar bo‘ladi, ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi;
- o‘quvchilarning fanga va o‘qishga bo‘lgan qiziqishi, ma’naviy-ma’rifiy tafakkuri, estetik did shakillanishi, tasavvurining boyishi, tashabbuskorlik va ijodkorlik sifatlarining oshishiga yordam beradi;

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, iSpring dasturining o‘zida 6 turdagi interaktiv dasturiy maxsulotlar tayyorlashga qodir. Biz birgina test misolida bu dasturning imkoniyati bilan sizni qisman tanishtirdik. Bugungi kunda IT sohasida minglab ta’lim uchun samarali bo‘lgan dasturiy ta’minotlar mavjud. Biz pedagoglar ham ta’lim sifatini oshirish, mamlakatimizning har tomonlama rivojlanishi uchun yetuk kadrlarni raqobatbardosh qilib tayyorlashda IT texnologiylarini mukammal o‘rganib, uni ta’lim tizimiga jadallik bilan olib kirishimiz muhim deb hisobliymiz. Zero rivojlangan xorij ta’lim tizimi tajribasini puxta o‘rganmay, zamonaviy axborot texnologiyalarini fanlarga joriy qilmay, pedagog kadrlarimizni zamonaviy dasturiy ta’minotlar bilan qurollantirmay turib biz ta’lim sifatiga erisha olmaymiz.

ADABIYOTLAR

1. “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, O’RQ-637-son, Toshkent 2020 yil.
2. А. А. Абдуқодиров, Р. Ишмухамедов, А. Пардаев. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар).-Т.:Истеъдод, 2008 yil.
3. T. Madumarov, M. Kamoldinov “Innovasion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim tarbiya jarayonida qo’llash”, T. “Talqin”, 2012 yil.
4. A. Abduqodirov, A. Pardaev “Masofali ta’lim nazariyasi va amaliyoti”, Toshkent 2010 yil.
5. A. R. Maraximov, S. I. Raxmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari». O’quv qo`llanma.Toshkent 2001 yil.
6. http://www.ispringsolutions.com
7. www.ispring.ru
8. B. Boymetov, Qalamtasvir, darslik, Musiqa nashriyoti, Toshkent 2006 yil.
9. T. Qo’ziyev, A. Egamov,T. Qanoatov, A. Nurqobilov. Rangtasvir 5-9 sunflar. “San’at” jurnali nashriyoti, Toshkent 2003 yil.
10. X. E. Sultnov, Rangtasvir, o’quv qo’llanma, 2019 yil.

11. X. X. Muratov, Qalamtasvir, o'quv qo'llanma, Toshkent IJOD-PRINT-2020 yil.

REFERENCES

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'RQ-637-son, Toshkent 2020 yil.
2. А. А. Абдуқодиров, Р. Ишмухамедов, А. Пардаев. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар).-Т.:Истеъдод, 2008 yil.
3. T. Madumarov, M. Kamoldinov "Innovasion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta'lim tarbiya jarayonida qo'llash", T. "Talqin", 2012 yil.
4. A. Abduqodirov, A. Pardaev "Masofali ta'lim nazariyasi va amaliyoti", Toshkent 2010 yil.
5. A. R. Maraximov, S. I. Raxmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari». O'quv qo`llanma.Toshkent 2001 yil.
6. http://www.ispringsolutions.com
7. www.ispring.ru
8. B. Boymetov, Qalamtasvir, darslik, Musiqa nashriyoti, Toshkent 2006 yil.
9. T. Qo'ziyev, A. Egamov,T. Qanoatov, A. Nurqobilov. Rangtasvir 5-9 sunflar. "San'at" jurnali nashriyoti, Toshkent 2003 yil.
10. X. E. Sultnov, Rangtasvir, o'quv qo'llanma, 2019 yil.
11. X. X. Muratov, Qalamtasvir, o'quv qo'llanma, Toshkent IJOD-PRINT-2020 yil.